

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI SHAHRISABZ FILIALI**

ELMANOV ABBOS BEGMAT O'G'LI

**LAZER NURI BILAN DETAL ISHCHI YUZASIGA ISHLOV BERISH
ORQALI YEYILISHGA BO'LGAN BARDOSHLILIGINI OSHIRISH**

**05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Elmanov Abbos Begmat o‘g‘li Lazer nuri bilan detal ishchi yuzasiga ishlov berish orqali yeyilishga bo‘lgan bardoshlilikini oshirish	3
Элманов Аббос Бегмат угли Повышение износостойкости за счет обработки рабочей поверхности детали лазерным лучом	21
Elmanov Abbos Increasing the wear resistance by processing the working surface of the part with laser beam	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI SHAHRISABZ FILIALI**

ELMANOV ABBOS BEGMAT O‘G‘LINING

**LAZER NURI BILAN DETAL ISHCHI YUZASIGA ISHLOV BERISH
ORQALI YEYILISHGA BO‘LGAN BARDOSHLILIGINI OSHIRISH**

05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4451 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzaumidov Asilbek Shuhratjonovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ergashev Ihom Olimjonovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rustamov Raxmatali Murodovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18-yanvar soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy, Tel.: (69)228-76-68, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz. tel. Namangan muhandislik-texnologiya instituti ma‘muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (348-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel.: (69)228-76-68).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-yanvar kuni tarqatildi.
(2024-yil 30-noyabrdagi № 23/4 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.A.Mahsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

N.M.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik va yengil sanoatda zamonaviy tikuvchilik mahsulot turlari kengayib, ularga qo‘yilayotgan talab ham jadal sur‘atlar bilan ortib bormoqda. Zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun energiya-resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida to‘qimachilik va yengil sanoat bozorida 2020-yilga nisbatan ishlab chiqarish qiymati 2025-yilga qadar 26.2% miqdorni, yillik o‘rtacha o‘sish jadalligi esa 6.2 % ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Buning uchun esa, mazkur sanoatda ish jarayonini sifatli amalga oshiradigan mashinalar va usullarni amaliyotga joriy etish taqozo etiladi. Shu jihatdan to‘qimachilik va yengil sanoatda turli assortimentdagi kiyimlarni ishlab chiqarish alohida o‘rin tutib, Turkiya, Italiya, Rossiya, Fransiya, Xitoy kabi davlatlar yetakchi hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaralsa, sanoat miqyosidagi mahsulot va ish sifati hamda unumdorligi texnik-iqtisodiy jihatdan samarador bo‘lishi uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda uskunalarning ishlashi unumdorligini ta‘minlash maqsadida resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmmoqda. Bu borada, uskuna va jihozlarning asosiy ichki detallaridan hisoblangan tishli g‘ildiraklar, shu jumladan kichik o‘lchamdagi tishli g‘ildiraklarning ishlash muddati uzaytirilishini ta‘minlash vaqt va sifat jihatdan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tishli g‘ildiraklar tishlarining sinib ketishi, tashqi ishqalanish qatlamining yedirilib ketishining oldini olishga qaratilgan energiya-resurstejamkor sharoitlarni ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, ish rejimlari va parametrlarini asoslashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tekstil sanoatida mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, jihozlarning ishlash va ta‘mirlash oralig‘i muddatini uzaytirish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60 sonli Farmoni¹, shuningdek, 2022-yil 31-maydagi PQ-266 sonli qarorida ham “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida ta‘kidlab o‘tilgan va bir qator vazifalar belgilab berilgan². Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik va tekstil sanoatini zamonaviy standartlar asosida rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi F-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.05.2022 yildagi PQ-266-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5128-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori

mahalliy xom-ashyo manbalarini qayta ishlash, importbop, eksportga chiqarish bozorlarida raqobatga chidamli mahsulotlarni yetkazib berish va ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq yo'lga qo'yish, samarador investitsiya olib keladigan muhitni yaratish hamda yuqori rivojlangan texnologiyali va zamonaviy investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlar aholisi farovonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvarda qabul qilingan "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-53-sonli Farmoni, 2021-yil 23-fevraldagi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi" nizomni tasdiqlash haqida" 93-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2017-yil 28-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3408 sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori, shuningdek mazkur faoliyatga bog'liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifa va masalalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda izlanishlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Tishli g'ildirakning g'ildirak juftliklarini turli dinamik kuchlanishi, tegishli yuzalar orasidagi yog'lovchi moyning yo'qligi haroratning oshishiga, bir qator xorijlik olimlar N.G.Basov, A.M.Proxorov (Rossiya), Ch.X. Tauns (AQSH) kabi va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Respublikamizda tishli uzatmalarning ish muddati, puxtaligi kabi masalalarni takomillashtirishning texnika va texnologiyalarini rivojlantirish, tishli g'ildiraklarni hisoblash va loyihalash usullarini ishlab chiqish, ularni maqbullashtirish bo'yicha nazariy-metodologik asosi bo'lgan fundamental va amaliy masalalarni yechishga mamlakatimizda bir qator olimlar: I.Sulaymonov, R.N.Tojiboyev, B.A.Pronin, M.M.Shukurov, A.D.Jo'rayev, N.N.Muxitov, D.X.Miraxmedov, G.I.Miroshnichenko, B.M.Mardonov, P.N.Tyutin, R.G. Mahkamov va boshqalar soha rivojlanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan texnologiyalar va usullar qishloq xo'jaligi, aviatsiya, mashinasozlik va shu kabi bir qator sanoat soxalarida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsada, ammo to'qimachilik va tekstil sanoatida eng ko'p ishqalanish va harakat muddatiga ega bo'lgan hamda jihozlarning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblangan kichik o'lchamdagi tishli g'ildiraklar ishchi yuzasiga ishlov berish uchun resurstejamkor

usullarni ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasidagi "OQSAROY TEXTILE" MCHJ bilan tuzilgan 03/25-2804 sonli shartnomasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: tishli g'ildirak tishlarni lazer nuri yordamida puxtalash orqali mustahkamligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan uskuna uchun samarador yechimlar ishlab chiqish hamda uning parametrlari va ish rejimlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

ishlab chiqarish sharoitlarida tishli g'ildiraklarning ish muddati, ularning ishdan chiqish sabablarini tahlil qilish;

tishli g'ildiraklarni yeyilish mezoni bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borish;

tishli g'ildiraklarni lazer nuri yordamida puxtalash texnologik jarayonlarining matematik modelini ishlab chiqish;

lazer nuri yordamida puxtalash texnologiyasi bo'yicha mustahkamligi oshirilgan tishli g'ildiraklarda ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish;

tishli g'ildirak tishlarini puxtalash texnologik jarayoni natijasida, termik puxtalangan tishli g'ildirakning ish resursini, iqtisodiy tannarxi va samaradorligini aniqlash;

tavsiya etilgan lazer nuri yordamida puxtalangan tishli g'ildirakni ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqot obyekti sifatida yengil sanoatda qo'llaniladigan jihozlarning kichik o'lchamli, yupqa devorli tishli g'ildiraklari olingan.

Tadqiqot predmeti yupqa devorli tishli g'ildiraklarga lazer nuri yordamida ishlov berish jarayonini ifodalaydigan analitik bog'lanishlar va matematik modellar, kukunli qoplama kombinatsiyalari, qurilmaning parametrlari, ko'rsatkichlari va ish rejimlari hamda ularning o'zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida tishli g'ildirakni lazer nuri yordamida puxtalashning nazariy va amaliy usullaridan foydalanilgan bo'lib, texnologik qoldiq kuchlanishlarining modelini ishlab chiqish uchun qaytmas jarayonlarning termodinamik qonunlari, dislokatsiya nazariyasi, qattiq jism fizikasi, qayishqoqlik va plastiklik nazariyasi, qattiq jismlarni mustahkamlik va buzilishi gipotezasi usullaridan foydalanildi. Nazariy tadqiqotlarni bajarishda matematika, fizika va oliy matematika qonunlaridan keng foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi;

Tishli g'ildirak ishchi yuzasining qattiqligi va yeyilishga bo'lgan bardoshlilikini oshirish maqsadida kompozitsion kukunli qoplama elementlari ulushlarining optimal qiymatlari hamda ushbu qiymatlarga mos ravishda lazer qurilmasi parametrlarini ta'minlashning matematik modeli ishlab chiqilgan;

Tishli g'ildiraklarga lazer nuri yordamida ishlov berishda uning bardoshlilikini oshirish imkonini beruvchi ishlov berilayotgan detalning geometrik va mexanik

parametrlari, issiqlik taqsimoti va texnologik rejimlariga ko‘ra lazer apparatni o‘rnatish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Yupqa devorli tishli g‘ildiraklarning mexanik xususiyatlari va ish resurslarini avtomatik texnologiyasi asosida mexanik chidamliligi, yeyilish va deformatsiyaga qarshi bikrlilik ko‘rsatkichlarini o‘zgarish qonuniyatlari aniqlangan, konstruktiv xususiyatlari va texnologik jarayonlarni inobatga olgan holda asoslangan;

Tishli g‘ildiraklarni lazer nuri bilan sovutish jarayonining optimal parametrlari va lazer nuri asosida yupqa tishli g‘ildiraklarning yeyilishga va yuklanishga bardoshlilikini oshirilishi va tebranish qamrovini texnologik qarshilikka bog‘liqlik qonuniyatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Lazer nuri yordamida tishli g‘ildirak tishlarining sirt qatlamlariga ishlov berish jarayonida materialning mexanik xususiyatlarini yaxshilash uchun optimal ishlov berish chuqurligi va lazer nurining texnologik parametrlarini belgilash asosida yangi texnologiyalar ishlab chiqildi;

Tishli g‘ildiraklarning yeyilishga bardoshlilikini oshirish maqsadida sirt qattiqligini 50–54 HRC dan 67–69 HRC gacha yetkazish imkonini beruvchi lazer nuri bilan ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqildi va amalda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi;

Lazerli ishlov berish jarayonida yuzaga keladigan termal va mexanik o‘zgarishlarni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan hamda tishli g‘ildiraklarning ishlash muddatini 2,5 barobarga oshiradigan va texnik xizmat ko‘rsatish oralig‘ini kengaytiradigan energiya tejankor avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi ishlab chiqildi;

Ishlab chiqarish sharoitida foydalanish uchun lazerli ishlov berish jarayonida optimal masofa va nurning intensivligi bo‘yicha texnik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ushbu lazerli ishlov berish texnologiyasi amalitada tadbiiq etilib, yillik iqtisodiy samaradorlik 59 million 364 ming so‘mni tashkil qildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqot natijalarining ishonchliligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro monandligi, izlanishlarning o‘lchash vositalari va zamonaviy usullardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, shunngdek bajarilgan tadqiqotlar negizida ishlab chiqilgan lazer nuri yordamida puxtalangan tishli g‘ildirak sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lazer nuri yordamida tishli g‘ildirak tishlariga ishlov berish jarayonini matematik modellashtirish va uning texnologik parametrlarini o‘rganish bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan matematik model lazer nurining ishlov berish chuqurligi va sirt qattiqligiga ta’sirini aniqlashda qo‘llanilib, optimal texnologik sharoitlarni belgilash imkonini berdi. Lazer va kukunli qoplama kombinatsiyasi yordamida sirtning mikrostruktura o‘zgarishlari o‘rganilib, materialning yeyilishga bardoshlilik va mexanik chidamliligi oshirilishi isbotlandi. Tadqiqot jarayonida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilib, lazer nuri bilan

ishlov berish parametrlarini nazorat qilish va optimallashtirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tishli g'ildirak tishlariga ishlov berish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish imkonini beruvchi lazerli ishlov berish texnologiyasining ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan izohlanadi. Ushbu texnologiya ishlab chiqarishda, jumladan "OQSAROY TEXTILE" MCHJ korxonasi muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilib, ushbu texnologiya iqtisodiy jihatdan samarador ekanligi isbotlandi. Shuningdek, ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari lazer nurining ta'sirini aniq nazorat qilish va turli dizayndagi tishli g'ildiraklarga moslashuvchan ishlov berishni ta'minlash imkonini berdi. Ushbu natijalar sanoat korxonalarida keng qo'llanilishi va mahsulot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Tishli g'ildirak tishlari ishchi yuzasiga lazer nuri yordamida ishlov berish jarayoni parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

Lazer nuri yordamida qayta ishlash natijasida tishlari mustahkamlangan tishli g'ildiraklar uchun "Texnik tavsif" ko'rinishidagi meyoriy hujjatlar "OQSAROY TEXTILE" MCHJda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil, 21-oktyabrdagi 03/05-2804 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tishli g'ildiraklar ishchi yuzasining yeyilishga bardoshlilikini oshirish uchun ishlash muddati 2,5 baravar ko'proq bo'lgan energiya-resurstejamkor tishli g'ildiraklar ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan hamda lazer nuri yordamida ishlov berilgan tishlarning mustahkamligi oshirilganligi sababli ularning sinishini 3,5% gacha kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola nashr etilgan, shulardan 8 ta maqola Respublika va 3 ta maqola xorijiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot ob'ekti va predmeti tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga mos kelishi aniqlangan, tadqiqot amaliy natijalari va ilmiy yangiligi berilgan, olingan natijalarning to'g'riligi asoslangan, amaliyotga joriy qilish bo'yicha ma'lumotlar berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishning aprobatsiyasi

natijalari hamda chop qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Lazer nuri yordamida mashina detallariga termik ishlov berish asoslari va uning istiqboli”** nomli birinchi bobida lazer texnikasi tadqiqot usullari, sensorlar, lazer nurini qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan O'zbekiston olimlari tadqiqotlarining adabiyotlar tahlili, lazerli ishlov berish texnologiyasi haqida qisqacha ma'lumot, lazerlarning tuzilishi va uning ishlash prinsipi, ishlab chiqarish sharoitida tajribalar asosida aniqlangan tishli g'ildirakning ishdan chiqish sabablari va turlari va bob bo'yicha xulosalardan iborat.

Disertatsiyaning **“Tishli g'ildiraklarning tishlariga lazer nuri bilan termik ishlov berishning nazariy asoslari”** nomli ikkinchi bobida, lazerli ishlov berish usulidan foydalanib tishli g'ildirak sirt yuzasi xususiyatlarini yaxshilash, po'latdan tayyorlangan tishli g'ildiraklarni lazer nuri bilan ishlov berishning matematik modeli, tishli g'ildiraklarning tish yuzasini lazerli termik puxtalash, Tishli g'ildiraklarning tish yuzasini lazerli termik puxtalash, tishli g'ildirak ishlash muddatini yeyilish mezoni bo'yicha hisoblash va bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Lazer texnologiyalari nafaqat yuqori quvvat zichligiga, balki nohiziqli jarayonlar (zaif yutuvchi muhitda nohiziqli yutilish), selektiv texnologiyalarda (kimyoviy, biotibbiy texnologiyalar) uchun muhim bo'lgan yuqori foton zichligiga ham asoslanishi mumkin. Nurning fokus sohasida kuchli va o'ta kuchli elektromagnit maydonlardan foydalanish mumkin. So'nggi paytlarda yorug'lik bosimidan foydalanadigan (mikrozarrachalar bilan manipulyatsiya, atom-molekulyar yig'ilish – laser trapping) texnologiyalar paydo bo'ldi (sirtga parallel nurning normal tushishi bilan bog'liq yorug'lik bosimi $P_{light} = \varepsilon(1 + R)$ ifoda bilan aniqlanadi, bu yerda ε – nurlanish energiyasining hajmli zichligi, R – sirtni qaytarish koeffitsienti).

Lazerli nurlanish nuri tarami material yuzasiga tushganda, nurlanishning bir qismi undan qaytariladi va bir qismi materialga chuqur kirib, unga yutiladi.

Moddada nurlanishning tarqalishi odatda Buger qonuni bilan tavsiflanadi:

$$q(x) = q_0(1 - R) \exp(-\alpha x),$$

bu yerda $q(x)$ – moddaning sirtidan x masofada joylashgan nurlanish kuchining zichligi; q_0 – tushuvchi nurlanish quvvati zichligi; R – sirtni qaytarish koeffitsienti; α – moddadagi yorug'likning susayishi ko'rsatkichi. Nurlanishni yutilishida modda qiziydi. Nurlanishning kuchli (sirtqi) va zaif (hajmli) yutilishiga mos keladigan materialning qizish rejimlari mavjud.

Bunda nurlanishning singish chuqurligi odatda issiqlik o'tkazuvchanligining xarakterli kattaligidan ancha past bo'ladi ($1/\alpha \ll \sqrt{\alpha\tau}$, bu yerda τ – nurlanishning ta'sir qilish vaqti, α – materialning issiqlik o'tkazuvchanligi).

Amaliyotda jarayonning asosiy parametrlarini aniqlashda ko'p hollarda issiqlik almashinish masalalarini aniq hal qilish talab qilinmaydi, aksincha, nurlanish quvvatining chegaraviy zichligini (q_n) (yoki chegara quvvatini (P_n), chegara energiyasini (W_n)) taxmin qilish kifoya. Nurlanish quvvatining chegaraviy zichligi – bu nurlangan materialda belgilangan o'zgarishlar sodir bo'ladigan qiymatdir. Nazariy jihatdan, q_n kattaligi ishlov beriladigan materialning maksimal harorati ushbu

jarayonning boshlanishiga to'g'ri keladigan T_* qiymatga yetadigan tushuvchi nurlanishning (q_0) quvvat zichligi qiymati sifatida aniqlanadi (masalan, materialning bug'lanishi uchun bu uning qaynash nuqtasi). Ta'sir etishning oxirida radiusi r_0 bo'lgan doira shaklida nurlangan maydonning markazida jismning sirtidagi haroratni aniqlaydigan ifodadan dastlabki xarakteristikalarini aniqlanishi mumkin. Kuchli yutilish rejimida nurlanish uchun bu ifodalar:

$$T = \frac{2q_0(1-R)\sqrt{a\tau}}{k} \left(\frac{1}{\sqrt{\pi}} - \operatorname{ierfc} \frac{r_0}{2\sqrt{a\tau}} \right) + T_N, \quad (1)$$

$$T = \frac{2q_0(1-R)r_0}{k} + T_N, \quad (2)$$

Hajmiy yutilish rejimida nurlanish uchun

$$T = \frac{2q_0(1-R)\tau}{\rho c \delta} \left\{ 1 - \exp\left(-\frac{r_0^2}{4a\tau}\right) - \frac{r_0^2}{4a\tau} \operatorname{Ei}\left(-\frac{r_0^2}{4a\tau}\right) \right\} + T_N, \quad (3)$$

bu yerda δ – yorug'likning moddaga singish chuqurligi (Buger bo'yicha yutilishida $\delta = 1/\alpha$ – integral ko'rsatish funksiyasi; T_N – boshlang'ich harorat.

(3) ifoda ikkita maxsus holatga ega: a) $r_0 \gg \sqrt{a\tau}$ da

$$T = \frac{2q_0(1-R)\tau}{\rho c \delta} + T_N$$

b) $r_0 \ll \sqrt{a\tau}$ da

$$T = \frac{2q_0(1-R)r_0^2}{4k\delta} \ln\left(19,4 \frac{a\tau}{r_0^2}\right) + T_N \quad (4)$$

bu yerda k – materialning issiqlik o'tkazuvchanligi.

Lazer bilan ishlov berishning bir qator texnologik jarayonlarida ishlov beriladigan sirtni lazer nurlari bilan skanerlash qo'llaniladi. Bunda issiqlik bilan ishlov berish natijalari skanerlash tezligiga (V_{sk}). bog'liq.

Tez harakatlanuvchi manbada ($\frac{V_{sk}r_0}{a} \gg 1$) materialni kuchli yutuvchi ishlov beriladigan sirtidagi maksimal harorat:


Bu erda ayrim matematik amallarni bajarishdan so'ng bug'lanish sirtining haroratiga teng bo'lgan T haroratdagi to'yingan bug' bosimi Klauzius-Klapeyron tenglamasining xususiy holatiga ko'ra aniqlanadi:

$$P_T = P_0 \frac{T}{T_0} \exp \left[\frac{L_b^m \mu}{R_G T_0} \left(1 - \frac{T_0}{T} \right) \right] \quad (5)$$

bu yerda L_b^m – materialning birlik massasi uchun bug'lanishining yashirin issiqligi; $P_0 - T_0$ haroratdagi to'yingan bug' bosimi (masalan, normal bosimdagi $T = T_0$ qaynash haroratida $P_0 = 10^5$ Pa.

Lazer nurlanishi bilan nurlangan materialning haroratini aniqlash va uning asosida bug'lanish tezligini hisoblash ishlov berish jarayonining integral

xususiyatlarini olish va ishlov berish rejimining zarur parametrlarini aniqlash imkonini beradi.



1-rasm. Turli nurlanish quvvatlarida kerakli energiya sarfining metallning qalinligiga bog‘liqligi

Ba’zi hollarda nurlanish ta’sirining issiqlik modeli lazer texnologiyalari jarayonlarini to‘g‘ri ko‘rib chiqish uchun yetarli bo‘lmaydi.

Tishli g‘ildiraklarning tishlarini lazerli termik mustahkamlash. Lazerli termik mustahkamlash bo‘yicha bir qator tajribalar davomida namunalarning qattiqligini sezilarli darajada oshirishga erishildi (yetkazib berish holatida taxminan 50 HRC), bu kukunli materiallardan tayyorlangan qoplamali ishlov berilgan tishli g‘ildiraklar tishlarida ishlov berilgandan keyin 2800 mkm gacha chuqurlik bilan 55 dan 57 HRC gacha qattiqlikda bo‘ladi. Biroq, ishlash vaqti va yeyilish kabi ishlatish sinovlarini o‘tkazishda o‘z yechimini topishi mumkin bo‘lgan muammolar ochiqlicigacha qolmoqda.


Kuchli yutuvchi material uchun (masalan, metall), agar nurlangan hududning o‘lchami r_0 qizdirilgan qatlam qalinligidan sezilarli darajada oshib ketgan bo‘lsa, ($r_0 \gg \sqrt{a\tau}$, bu yerda a – materialning issiqlik o‘tkazuvchanligi, τ – nurlanish ta’sirining davomiyligi), bu ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$T(x, t) = \frac{2q_0(1-R)\sqrt{at}}{k} i_{\text{erfc}} \frac{x}{2\sqrt{at}} + T_H \quad (6)$$

bu yerda q_0 – sirtga tushayotgan nurlanishning quvvat zichligi; R – aks ettirish koeffitsienti; T_H – materialning boshlang‘ich harorati; k – uning issiqlik o‘tkazuvchanligi, t – nurlanish boshidan hisoblangan vaqt, o‘q materialga uning yuzasiga perpendikulyar ravishda chuqur yo‘naltirilgan ($x = 0$ sirtga mos keladi).

Ifoda (10) shuningdek, materialdagi qizdirish tezligi va harorat gradientini aniqlash imkonini beradi.

Nurlanish ta’siri tugagandan so‘ng ($t \geq \tau$) harorat taqsimoti quyidagi bog‘liqlik bilan aniqlanadi:



2-rasm. Toblab bo'shatish haroratiga bog'liq ravishda tishli g'ildiraklarning qattqligi (400-600 °C haroratda)

$$T(x, t) = (T_0 - T_H) \sqrt{\frac{\pi}{\tau} \left[\sqrt{t} \operatorname{ierfc} \frac{x}{2\sqrt{at}} - (\sqrt{t - \tau}) \right]}, \quad (7)$$

bu yerda T_0 – nurlanish ta'siri tugagan paytdagi sirt harorati. Ifoda (7) materialning sovutish tezligini aniqlash imkonini beradi (2-rasm).

Ma'lumki, konstruksion yaxshilanadigan po'latlar uchun qattqlik qanchalik yuqori bo'lsa, tutashish toliqishiga qarshiligi shunchalik yuqori bo'ladi va yuklanish sikllari soni $N = 10^7$ bo'lganda tutashish chidamliligi chegarasining (σ_{-1}^k) sirt qattqligiga nisbati o'zgarmas kattalik bo'lib hisoblanadi:

$$\sigma_{-1}^k = k \cdot \text{HRC} \quad (8)$$

bu yerda k – sirtning qattqligi va mustahkamlovchi ishlov berish turiga bog'liq koeffitsient.

Masalan, sirt qattqligi 50–54 HRC ga teng bo'lgan kompozitsion kukunli qoplama (C, Si, B) va termik ishlov berilgan po'latlar uchun DSt 21354-87 bo'yicha tutashish chidamliligi chegarasi 53 HRC darajada o'rnatiladi.

Tajriba paytida detallarning yeyilishini baholash uchun yeyilgan detalning ishlamay qolish ehtimolining uning ishlash vaqtiga funksional bog'liqligidan foydalanish mumkin. Ushbu bog'liqlik A.S.Pronikov tomonidan taklif qilingan asta-sekin inkorni shakllantirish modeli asosida olingan, uning asosiy hisoblash parametri yeyilish tezligidir.

Ushbu uslubga ko'ra, yeyilish jarayoni quyidagi chiziqli bog'liqliklar bilan tavsiflanadi:

$$N = \alpha_0 + vt, \quad (9)$$

bu yerda N – ishqalanish yuzasiga normal yo'nalishda yeyilish kattaligi, m;
 α_0 – detal o'lchamlarining dastlabki og'ishi, m;
 v – yeyilish tezligi, m/s;
 t – tutashmaning ish vaqti, s.

Agar tasodifiy o'zgaruvchilar α_0 va v normal qonun bo'yicha taqsimlangan bo'lsa, u holda t ning har bir qiymati uchun parametr N ham normal qonun bo'yicha taqsimlanadi. Bunday holda, ish vaqti t ga mos keladigan tutashmaning ishlamay qolish ehtimoli quyidagi tenglama bilan aniqlanishi mumkin:

$$P(t) = 0,5 + F\left(\frac{H_{ch} - \alpha_0 - v_0^t}{\sqrt{\sigma_a^2 + \sigma_v^2 t^2}}\right), \quad (10)$$

bu yerda H_{ch} – tutashmaning normal ishlashidan kelib chiqqan holda aniqlangan yoki tayinlangan yeyilishning chegara qiymati;

σ_a – ko'rib chiqilayotgan o'lcham uchun joizlik bo'yicha aniqlanadigan, detallar o'lchamlarining o'rtacha kvadratik og'ishi;

σ_v – yeyilish tezligining o'rtacha kvadratik og'ishi;

$$P_m = 0,564 \sqrt{\frac{N_e}{\theta_t r_{kel}}}, \quad (11)$$

bu yerda P_m – Gers bo'yicha maksimal bosim, MPa;


N_e – solishtirma normal yuklama, N/m;

θ_t – tutashish holati uchun elastik doimiysi, m^2/N ;

r_{kel} – keltirilgan egrilik radiusi, m.


Lazerli ishlov berish yaxshilanish rejimi bo'yicha oldindan kombinatsion kukunli (C, Si, B) qoplama berilgan detallarda amalga oshirildi, bu ham tish o'zagining qattiqligini 50-54 HRC darajasida olish imkonini berdi. Lazerli ishlov berish natijasida diffuziya qatlamining umumiy qalinligi sirtning 65-67 HRC qattiqligida 0,3-0,4 mm ni tashkil etdi.

Hajmiy puxtalaydigan termik ishlov berilgandan so'ng tanlab olingan po'latning mexanik xossalari 20 °C haroratda statik kuchlanish sharoitida namunalarda tadqiq qilindi. Tishli uzatmalar uchun ham, shesternyalar uchun ham vaqtinchalik qarshilikning o'rtacha qiymati $\sigma_b = 925 \pm 10$ MPa, nisbiy cho'zilish esa $\delta = 13 - 15\%$ ni tashkil etdi. Hisoblashlar uchun normal elastiklik moduli $Y = 2 * 10^5$ MPa ga teng, Puasson koeffitsienti esa $\mu = 0,3$ ga teng deb qabul qilindi.



3-rasm. Puxtalanган qatlam qalinligi bo'yicha qattiqlikning taqsimlanishi

Ekspirimental qurilma sifatida stenddan foydalanilgan bo‘lib, uning tarkibiga aylanish tezligi sozlanadigan o‘zgarimas tokli elektr dvigateli va vallari o‘zaro kardan uzatmalar yordamida ulangan ikkita bir xil bir pog‘onali reduktorlar kiradi, uning kinematik sxemasi keltirilgan. Yuklanish xususiyatlari 4-rasmda ko‘rsatilgan.



4-rasm. Shesternyaning 320 ayl/min aylanish tezligida shesternya 1 va shesternya 2 da burovchi moment taqsimlanishining gistogrammasi

Maksimal ruxsat etilgan yeyilish qiymati texnik shartlarga muvofiq qabul qilinadi.

$H_{ch} = 4,7 \cdot 10^4$ m. Detal o‘lchamlarining boshlang‘ich og‘ishining o‘rtacha qiymati a_0 va tishlar profillarini tayyorlash xatoligining o‘rtacha kvadratik og‘ishi a_a qiymatlari ilashish qadamining og‘ishi uchun joizlik bo‘yicha aniqlandi, va $a_0 = 0$ qiymati va $a_a = 4,2 \cdot 10^5$ m qiymati olindi.

Yeyiladigan detalning o‘rtacha resursi quyidagi tenglama bo‘yicha aniqlandi:

$$T_{o/r,r} = \frac{R_{ch} - a_0}{v_{o/r}}, \quad (12)$$

Hisoblashlar shuni ko‘rsatdiki, $P(t) = 0,5$ da shesternya 1 ning o‘rtacha resursi taxminan 3000 soatni, tishli g‘ildirak 1 ning o‘rtacha resursi taxminan 17200 soatni, shesternya 2 ning o‘rtacha resursi taxminan 9000 soatni va g‘ildirak 2 ning o‘rtacha resursi esa taxminan 19400 soatni tashkil etdi.


2-jadval

Hisoblangan parametrlarning o‘rtacha qiymatlari

Tishli ilashma	Yeyilish kattaligi, mm	Yeyilish tezligining o‘rtacha qiymati, m/s	Koeffitsient k , 1/MPa	Standart og‘ish
1- shesterna	0,5	$v_{o/r1} = 4,6 \cdot 10^{-11}$	$k_1 = 1,57 \cdot 10^{-12}$	$\sigma_{v1} = 1,2 \cdot 10^{-11}$
1-g‘ildirak	0,8	$v_{o/r2} = 7,4 \cdot 10^{-11}$	$k_2 = 2,54 \cdot 10^{-12}$	$\sigma_{v2} = 1,9 \cdot 10^{-11}$
2-shesterna	0,15	$v_{o/r1} = 1,4 \cdot 10^{-11}$	$k_1 = 0,48 \cdot 10^{-12}$	$\sigma_{v1} = 0,37 \cdot 10^{-11}$
2-g‘ildirak	0,7	$v_{o/r2} = 6,5 \cdot 10^{-11}$	$k_2 = 2,22 \cdot 10^{-12}$	$\sigma_{v2} = 1,7 \cdot 10^{-11}$

O‘tkazilgan tajriba va hisoblashlar natijasida olingan natijalarni umumlashtirib, tishli birikmalar inkorsiz ishlash ehtimolining chegaraviy yeyilishga erishish mezonini

bo'yicha ishlatish vaqtiga funksional bog'liqligini 5-rasmda ko'rsatilgan grafik shaklida taqdim etishimiz mumkin.



5-rasm. Tishli birikmalar inkorsiz ishlash ehtimolining chegaraviy yeyilishga erishish mezonini bo'yicha ishlatish vaqtiga funksional bog'liqligi

Grafikdan ko'rinib turibiki, tarkibida kompozitsion kukunli ishlov berilgan tishli g'ildirak va uning ustidan lazerli ishlov berilgan shesternyaga ega bo'lgan tishli ilashma, faqat termik ishlov berish orqali kompozitsion kukunli qoplamalangan detallardan iborat bo'lgan tishli uzatmaga qaraganda uzoqroq texnik resursga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har ikkala tishli uzatmalarda ham shesternyalar tishli g'ildiraklarga qaraganda tezroq yeyiladi.

Dissertasiyaning "**Tishli g'ildirakning tishlariga lazer nuri bilan termik ishlov berish ustida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar**" deb nomlangan uchinchi bobida tishli g'ildirakka lazerli ishlov berishning tasnifi va xususiyatlari, tadqiqot ob'ektlari, tishli g'ildirakni tajriba-sinovi o'tkazish metodikasi, lazer nuri yordamida termik ishlov berish jarayoni uchun tavsiya etilayotgan jihozning asosiy texnologik parametrlari, lazerli ishlov berilgan tishli g'ildirakdagi ishqalanishdagi asosiy parametrlarni o'rganish ustida bajarilgan tadqiqotlar, lazerli termik ishlov berishdan keyin tishli g'ildirakning ishqalanish ko'effitsientini aniqlash, tishli g'ildirak mikrostrukturasi va fazalar tarkibini o'rganish usullari va bob bo'yicha xulosalardan iborat.

Tishli g'ildirak materiali 960-1000 °C dan past bo'lgan erish nuqtasiga ega, bu esa qoplama jarayonida yuzaga issiqlik ta'sirini kamaytirishga yordam beradi, ular sirtni qoplash jarayonida asosni yaxshi namlaydi, uning yuzasida oksid plyonkalarini eritadi. Kukun tarkibida bor va kremniyning qotishmalar elementlari mavjudligi o'z-o'zidan oqimga yordam beradi. Eritma yuzasida shishasimon qoplama hosil bo'ladi, bu eritmani havo bilan o'zaro ta'sir qilishdan himoya qiladi. Binobarin, sirtni qoplash


jarayonida eritmalar hovuzini atrof-muhitning salbiy ta'siridan maxsus himoya qilish talab qilinmaydi.

3-jadval

Cho'ktirilgan qoplamaning kimyoviy tarkibi

Element	C	Si	B	Fe	Al	Cr
Massaviy ulushi, %	0,3-0,6	1,2-3,2	1,7-2,5	3,2-5,0	0,8-1,3	3,9-14

Qo'shimcha material sifatida taxminan 0,3% uglerodni o'z ichiga olgan uglerodli konstruksion po'lat 30 (GOST 1050-2013) ishlatilgan. Ishda ikki bosqichli lazerli kukunli qoplama usuli qo'llanilgan. Oldindan qo'llaniladigan materialning sirtini qoplash amalga oshirildi (6-rasm).



6-rasm. Ikki bosqichli lazerli qoplama qoplash sxemasi

Dissertasiyaning “**Tishli g'ildirakni tishlariga lazer nuri bilan termik ishlov berishning to'liq omilli tajribasining statistik tahlili va iqtisodiy samaradorlik hisobi**” deb nomlangan uchinchi bobida tishli g'ildirakni lazer nurida termik puxtalashni to'liq omilli tajribasining statistik tahlili, Tishli g'ildirak tishlarini lazer nuri bilan puxtalash texnologiyasini qo'llashning iqtisodiy samaradorligini xisobi va bob bo'yicha kulosalari keltirilgan.

1.Rejalashtirish matritsasi tuzamiz:

S_u^2 tenglama bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz:

$$S_u^2 = (\bar{y}_{u1} - \bar{y}_u)^2 + (\bar{y}_{u2} - \bar{y}_u)^2, (u = 1,2,3,4,5,6,7,8) \text{ (6-jadval).}$$

5-jadval

Tajriba ma'lumotlari

N _o	x _n	Omilar	x _{max}	x _{min}	$\Delta = x_{min} - x_{max} $	$(x_{min} + x_{max}) / 2$
1	x ₁	W- lazer nuri quvvati (Vt)	2000	500	2500	1200
2	x ₂	h- Lazer kallagidan tishgacha bo'lgan masofa (mm)	100	5	95	52.5
3	x ₃	v – lazer kallagining surilish tezligi (mm/sek)	500	1000	500	1550

Kirish parametrlarining o'zgarishi natijalari

№	Omillar			Tajriba natijalari			
	W, X ₁	h, X ₂	v, X ₃	\bar{y}_{i1}	\bar{y}_{i2}	\bar{y}_u	S_u^2
1	-	-	-	948	978	963	214.9
2	+	-	-	387	417	402	213.3
3	-	+	-	465	409	437	808.9
4	+	+	-	311	373	342	963,6
5	-	-	+	1095	897	996	9864.5
6	+	-	+	413	427	420	45.9
7	-	+	+	440	460	450	99.2
8	+	+	+	373	335	354	344,7

Omillarga bog'liq bo'lgan holda tishli g'ildirak tishlarini lazer nuri yordamida puxtaligini oshirish jarayoni tahlili SOLIDWORKS, MATLAB kabi amaliy dasturiy paketlardan foydalangan holda amalga oshirildi.

Biz g'ildirak tishlarini mustahamlilik ko'rsatkichiga cheklanish berdik va tishlarining mustahamligini muayyan ko'rsatkichiga mos keladigan W- lazer nuri quvvati, h- lazer kallagidan arragacha bo'lgan masofa hamda v- lazer kallagini g'ildirak tishlari bo'ylab surilish tezligi ko'rsatkichlarida ishlov berish samaradorligining maksimal qiymatlarini hisoblash, solishtirish va tahlil qilish yo'li bilan W- lazer nuri quvvati, h- lazer kallagidan tishgacha bo'lgan masofaning quyidagi ratsional qiymatlarini qabul qildik: W = 100 Vt; h = 5 mm; v = 1600 m/s.

Tishli g'ildirak tishlarini lazer nuri bilan puxtalash texnologiyasini qo'llashning iqtisodiy samaradorligini xisoblash.

Lazer uskunasi hozirgi bozor narxi 120 mln.so'mni tashkil etadi. Uning xizmat qilish muddati 10 yilni tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, unda keltirilgan harajatlardagi me'yorlik koeffitsiyentiga ko'paytirib bir yil uchun keltirilgan harajatni aniqlaymiz.

$$E_y = 713643840 - 120000000 = 59,364384 \text{ so'm}$$

Shunday qilib takomillashtirilgan mehnat vositasida lazer nuri ostida puxtalash yo'li bilan qayta ishlangan mustahkam tishli g'ildirakdan foydalanishning yillik iqtisodiy samardorligi 59,364 mln. so'mni tashkil qiladi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Yengil sanoat korxonalarida jihozlarida qo'llanib kelinayotgan yupqa devorli tishli g'ildiraklar konstruksiyasi, ularning asosiy parametrlari, mustahkamligi, bikirligi kabi parametrlar bo'yicha bajarilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilindi.

Hozirgi kunda izlanuvchi va olimlarimiz tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida tishli g'ildiraklarning o'lchamlari, joylashish, uning samaradorligini oshirish va boshqa ko'rsatkichlarini takomillashtirish maqsadida, tishli g'ildiraklar

konstruksiyalari, ularning afzalliklari va kamchiligi o'rganib chiqilgan va samarali yo'nalishlar tavsiya etilgan.

Tishli g'ildiraklar tishlarining sinishi va ularning egilishi oqibatida texnologik jarayon sifatiga salbiy ta'siri hamda tishli g'ildiraklarning ish muddati juda qisqa bo'lib zamon talabi darajasida emasligini inobatga olib:

1. Ushbu ishda tavsiya etilgan tishli g'ildiraklarni mustahkamlash usuli qo'llanilishi mumkin va muayyan sharoitlarda qo'llanilishi kerak.

2. Lazerli termik mustahkamlash usuli bilan mahalliy toblash tishli g'ildiraklarning mexanik xususiyatlarini yaxshilashi mumkin. Ishda yetkazib berish holatida qattiqligining boshlang'ich qiymatlari 50-54 HRC gacha bo'lgan tishli g'ildiraklarning tutashish sirti qattiqligini 65-67 HRC gacha yetkazishga erishish imkoniyatini ko'rsatdi.

3. Solishtirma nurlanish energiyasi kesilayotgan materialning qalinligi oshishi bilan monoton ravishda kamayadi. Biroq, o'lgangan P qiymat hisoblanganidan kattaroq. Katta qalinlikdagi tayyorlanmalarni kesishda solishtirma nurlanish energiyasining pasayishi kislorod oqimidan samaraliroq foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin, deb faraz qilish mumkin.

4. Hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, lazer nurida puxtalangan tishli g'ildirak bilan bog'langan tishli g'ildirakning texnik resursi, har ikkala detal ham toblab bo'shatilgan tishli uzatmadagi g'ildirakning resursidan deyarli 12% ga yuqori. Shunday qilib, ishqalanish juftligining yuqori yeyilishga chidamliligi va umrboqiyiligiga erishildi. Sirtni puxtalashning ushbu texnologiyalari ishchi sirtning qattiqligi bo'yicha tishli ilashma detallarining optimal birikmasini olish imkonini berdi va shu bilan butun tishli uzatmaning resursini sezilarli darajada oshirdi.

5. Turli rejimlarda sirt qatlamlarini lazer bilan modifikatsiyalashda lazer kukuni bilan qoplash va keyinchalik yuqori tezlikda qayta kristallanish natijasida olingan Cr-B-Si qoplamalarining tribologik xususiyatlari, mikro tuzilishi, mikroqattiqligi, fazaviy tarkibi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Cr-B-Si qoplamasining mikrostruktura parametrining aşınma qarshilik xususiyatlariga ta'sir qilish sxemasi aniqlandi. Ishqalanishga bardoshli Cr-B-Si qoplami qoplash yaratildi va qoplamaning yeyilishga qarshiligini miqdoriy baholash uchun muhandislik usuli taklif qilindi, mikro tuzilmaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda - uning qiymati (dendritik parametr) aniqlandi.

6. Qoplama qoplangan tishli g'ildirak tishlarida lazerli Cr-B-Si qoplamasiga xos bo'lgan yuqori dispersli dendritik struktura hosil bo'ldi. Qoplamaning fazaviy tarkibi (75%) va evtektikaning bir qismi bo'lgan fazasi (25%) asosidagi o'ta to'yingan g-qattiq eritmadir. Har xil rejimlarda yotqizilgan qoplama yuzasini lazer bilan o'zgartirish, faza tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan, strukturaning tarqalishiga va mikroqattqlikka ta'sir qildi. Kristallanish jarayonida qotishmaning sovutish tezligi oshishi bilan dendritik parametrning qiymati pasayadi va qoplamaning mikroqattiqligi oshadi.

7. Tishlarni yuzaki qoplama va keyingi lazerli modifikatsiyadan so'ng, o'rganilayotgan mexanik yuklar oralig'ida ishqalanish koeffitsientining o'xshash qiymatlari 0,49 dan 3,92 mN gacha bo'lgan yuk ortishi bilan ishqalanish koeffitsienti qiymati xuddi shu qonunga muvofiq kamayadi; Ishqalanish koeffitsientining yukga

bog'liqligi tabiati Cr-B-Si qoplamasi - po'latdan yotqizilgan ishqalanish juftining yopishqoq o'zaro ta'sirining ustunligini isbotlaydi.

8. Tish tishli g'ildirakning tish sirtini lazer bilan o'zgartirish tishlarini eyilishga qarshiligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Dendritik parametr d qiymati 1,9 marta (8,04 mkm dan 4,25 mkm gacha) kamayganda eskirish tezligi va hajmli eskirish tezligi 3,8-3,9 martaga kamayadi.

9. O'tkazilgan ko'p omilli statistic tahlil natijalariga asosan g'ildirak tishlarini mustahamlilik ko'rsatkichiga cheklanish berdik va tishlarining mustahamligini muayyan ko'rsatkichiga mos keladigan W - lazer nuri quvvati, h - lazer kallagidan arragacha bo'lgan masofa hamda v - lazer kallagini g'ildirak tishlari bo'ylab surilish tezligi ko'rsatkichlarida ishlov berish samaradorligining maksimal qiymatlarini hisoblashda quyidagi ratsional qiymatlarini qabul qildik: $W = 100 \text{ Vt}$; $h = 5 \text{ mm}$; $v = 1600 \text{ m/s}$.

10. Tavsiya etilgan tishli g'ildiraklarni puxtalashni ishlab chiqarishga tadbiq etilganda 1 ta jihozdagi tishli g'ildirakni lazer kurida puxtalashning yillik iqtisodiy samardorlik 59,364 mln so'mni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2023.Т.66.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
ШАХРИСАБЗСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ХИМИКО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА**

ЭЛМАНОВ АББОС БЕГМАТ УГЛИ

**ПОВЫШЕНИЕ ИЗНОСОСТОЙКОСТИ ЗА СЧЕТ ОБРАБОТКИ
РАБОЧЕЙ ПОВЕРХНОСТИ ДЕТАЛИ ЛАЗЕРНЫМ ЛУЧОМ**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника
и робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2024.1.PhD/T4451.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте и Шахрисабзском филиале в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Наманганского инженерно-технологического института (www.nammti.uz) и на информационно-образовательном портале “Ziynet” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Мирзаумидов Асилбек Шухратжонович
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Эргашев Илхом Олимжонович
доктор философии по техническим наукам (PhD),
доцент

Рустамов Рахматали Муродович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

**Термезский государственный университет
инженерии и агротехнологий**

Защита диссертации состоится «18» января 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2023.Т.66.01 при Наманганском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7 дом, Административное здание Наманганского инженерно-технологического института, малый зал конференции. Тел.: (69)228-76-68, факс: (69) 228-76-75; e-mail: niei_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрирована под №348). (Адрес: 160115, г.Наманган, ул.Касансайская, дом 7, тел.: (69)228-76-68).

Автореферат диссертации разослан «3» января 2025 года.
(Реестр протокола рассылки №23/4 от «30» ноября 2024 года).

А.М.Махкамов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Ш. А.Махсудов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней доктор философии по техническим наукам, доцент

Н.М.Сафаров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой текстильной и легкой промышленности виды современных швейных изделий расширяются, а также быстро растет спрос на них. Использование энергоресурсоэффективных технологий и оборудования для производства современной конкурентоспособной продукции занимает одну из лидирующих позиций. Объем производства мирового рынка текстильной и легкой промышленности по сравнению с 2020 годом прогнозируется к 2025 году на уровне 26,2%, а среднегодовые темпы роста – 6,2%. Для этого необходимо внедрить на практике машины и методы, реализующие рабочий процесс в данной отрасли. В связи с этим производство различных видов одежды занимает особое место в текстильной и легкой промышленности, а лидерами являются такие страны, как Турция, Италия, Россия, Франция, Китай. С этой точки зрения важно использовать энергоресурсосберегающие технологии и технические средства и устройства, чтобы качество и производительность выпускаемой продукции в промышленных масштабах были технически и экономически эффективными.

В целях обеспечения эффективности оборудования при производстве продукции текстильной и легкой промышленности в мире ведется научно-исследовательская деятельность, направленная на разработку новых научно-технических решений ресурсосберегающих технологий и технических средств. В связи с этим обеспечение продления срока службы зубчатых передач, в том числе малогабаритных, которые являются основными внутренними деталями машин и оборудования, является одной из важнейших задач с точки зрения сроков и качества. Особое внимание уделено разработке энергоресурсосберегающих режимов, направленных на предотвращение разрушения зубьев зубчатых колес, эрозии наружного слоя трения, а также обоснованию его технологического процесса, режимов работы и параметров.

В нашей республике реализуются масштабные меры по разработке ресурсосберегающих техники и технологий, которые позволяют снижать затраты труда и энергии, экономить ресурсы, а также продлевать срок эксплуатации и межремонтный период оборудования в текстильной и легкой промышленности, и достигаются определенные результаты. В Указе Президента от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»¹, а также в Постановлении от 31 мая 2022 года № ПП-266 отмечены меры по созданию специальной промышленной зоны «Специальный промышленный хаб машиностроения и электротехники»² и обозначен ряд задач.

В рамках реализации этих задач большое значение придается совершенствованию реформ, направленных на развитие машиностроения, электротехники, текстильной и легкой промышленности в соответствии с современными стандартами. Особое внимание уделяется переработке местных

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

² Постановление Президента Республики Узбекистан, от 31.05.2022 г. № ПП-266 “О внесении изменений в постановление Президента Республики Узбекистан от 27 мая 2021 года № ПП-5128 «О мерах по организации особой промышленной зоны «Специальный промышленный хаб машиностроения и электротехники»”

